

Husenova Aziza Sharipovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti, pedagogika fanlari
falsafa doktori (PhD)
aziza_husenova@buxdpi.uz

BLUM TAKSONOMIYASI: O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TA'LIMNING METODOLOGIK ASOSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Blum taksonomiyasining zamonaviy ta'lim jarayonidagi metodologik ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda taksonomiyaning tutgan o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada kognitiv soha bosqichlariga asoslangan ta'limni tashkil etishning afzalliklari va bu orqali o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlari misollar bilan bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Bloom taksonomiyasi, kognitiv rivojlanish, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi, ijodiy yondashuv, shaxs rivoji.

ТАКСОНОМИЯ БЛУМА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННОГО НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ УЧАЩЕГОСЯ

Аннотация. В этой статье анализируется методологическая значимость партии Bloom в процессе современного образования. В частности, роль таксономии в постепенном развитии знаний студентов, независимого мышления, творческого подхода и чувства ответственности покрывается научными соображениями. В статье описывается создание обучения на основе образования на основе этапов когнитивного сектора и возможности комплексного развития студента таким образом.

Ключевые слова: Bloom Таксономия, когнитивное развитие, развитие по сурнированию, эффективность образования, творческий подход, развитие личности.

BLOOM TAXONOMY: METHODOLOGICAL BASIS OF EDUCATION AIMED AT DEVELOPING THE PERSONALITY OF THE STUDENT

Annotation. This article analyzes the methodological significance of the Bloom Consignment in the modern education process. In particular, the role of taxonomy in the gradual development of students' knowledge, independent thinking, creative approach, and a sense of responsibility is covered on scientific grounds. The article describes the establishment of educational-based training based on cognitive sector stages and the possibility of comprehensive development of the student in this way.

Keywords: Bloom Taxonomy, Cognitive Development, Surdening Development, Education Efficiency, Creative Approach, Personality Development.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, nazariy bilimdan amaliy ko'nikmaga yo'naltirilgan yondashuvga o'tish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham maktab o'quvchilarini hayotiy zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bilan ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan. Bunday maqsadlarga erishishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, Bloom taksonomiyasi ta'lim jarayonini samarali tashkil qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Blum taksonomiyasi AQShlik pedagog B.Blum rahbarligida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv maqsadlarini tizimli va ierarxik tasniflashga xizmat qiluvchi metodologik model hisoblanadi.

“Taksonomiya” tushunchasi yunon tilidan olingan bo‘lib, **taxis** – tartib, **nomos** – qonun degan ma’nolarni anglatadi. Bloom o‘quv maqsadlarini uch asosiy sohaga ajratgan:

– kognitiv (bilish) soha – bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

– affektiv (hissiy) soha – qadriyatlar, hissiyotlar, munosabatlar bilan bog‘liq jihatlarni qamrab oladi.


– psixomotor soha – amaliy harakatlar va jismoniy ko‘nikmalarni ifodalaydi.

Maqolada asosan kognitiv soha tahlil qilinadi, chunki o‘quvchi bilish faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi ushbu soha orqali ta‘minlanadi. Bloom taksonomiyasining kognitiv sohasida bilimlar ierarxik tarzda oltita bosqichda tasniflanadi:

1. Bilim (Knowledge) – ma’lumotlarni yod olish va eslab qolish.
2. Tushunish (Comprehension) – o‘rganilgan bilimlarni sharhlash, izohlash va umumlashtirish.
3. Qo‘llash (Application) – nazariy bilimlarni amaliy holatlarda qo‘llay olish.
4. Tahlil (Analysis) – bilimlarni tarkibiy qismlarga ajratish, mantiqiy bog‘liqliklarni aniqlash.
5. Sintez (Synthesis) – mavjud bilimlar asosida yangi g‘oya va echimlar yaratish.
6. Baholash (Evaluation) – mustaqil fikr yuritish, tanqidiy yondashuv va qaror qabul qilish.

Har bir bosqich o‘quvchining fikrlash darajasini oshirib boradi va oddiy yodlashdan ijodiy fikrlashgacha bo‘lgan kognitiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bloom taksonomiyasi ta‘lim jarayonini quyidagi jihatlar bo‘yicha takomillashtirishga yordam beradi:



Blum taksonomiyasi o'qituvchilarga ta'lim jarayonini tizimli tashkil qilish, o'quvchilarga esa bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlari orqali yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini egallash imkonini beradi. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli Bloom taksonomiyasini milliy ta'lim tizimida keng joriy etish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Quyidagi jadvalda Bloom taksonomiyasining kognitiv bosqichlari 1-sinf "O'qish savodxonligi" darsligi misolida amaliy ko'rinishda bayon etilgan:

Bosqich	Ta'rif	Amaliy misol (1-sinf "O'qish savodxonligi" darsligidan)
1. Bilim	Ma'lumotni yod olish, eslab qolish	O'quvchi she'rni yodlaydi yoki hikoyadagi qahramon ismini eslaydi.
2. Tushunish	Ma'lumotni tushunish, izohlash va qayta ifodalash	Hikoya mazmunini o'z so'zlari bilan aytib beradi.

Bosqich	Ta'rif	Amaliy misol (1-sinf "O'qish savodxonligi" darsligidan)
3. Qo'llash	O'rganilgan bilimni yangi vaziyatda qo'llash	Matndagi voqeaga o'xshash holatni hayotidan misol qilib keltiradi.
4. Tahlil	Matn tuzilmasini ajratish, qismlar orasidagi bog'liqlikni tushunish	Matnning asosiy g'oyasi va voqealar ketma-ketligini aniqlaydi.
5. Sintez	Yangi mazmun yoki g'oya yaratish	Berilgan rasm asosida yangi hikoya tuzadi yoki yakunlanmagan matnni davom ettiradi.
6. Baholash	Fikr yuritish, tanqidiy yondashuv, qaror qabul qilish	"Yaxshi bola qanday bo'lishi kerak?" mavzusida fikr bildiradi va uni asoslaydi.

Blum taksonomiyasi asosida dars jarayonini tashkil etish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, matnga tanqidiy yondashishga va ijodiy izlanishga yo'naltiradi. Ayniqsa, o'qish savodxonligi fanida bu yondashuv matn bilan ishlash malakasini chuqurlashtiradi. Shuningdek, pedagog uchun baholash mezonlarini ishlab chiqishda qulaylik yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нарзуллаев К. С. Проблемы и перспективы создания гибкой учебно-образовательной системы // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2017. – № 6-2. – С. 307–309.
2. Таксономия Блума: что это такое и зачем она педагогам и методистам. [Электронный ресурс]. – URL: <https://skillbox.ru/media/education/taksonomiya-bluma-cto-eto-takoe-i-zachem-ona-pedagogam-i-metodistam>.
3. What Is Bloom's Taxonomy? A Definition For Teachers. – 2025.